XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-18-101-7-106-K/25 Kattaqo‘rg‘on shahar

Kattaqo‘rg‘on shahrining 2026-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Samarqand viloyat Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-son qaroriga muvofiq, xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar Kengashining yettinchi chaqiriq, o‘n sakkizinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2025-yil 30-dekabrdagi VII-24-191-7-0-K/25-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qarorga muvofiq, Kattaqo‘rg‘on shahar byudjetining 2026-yilgi daromadlari **93099.3 mln.so‘m** va xarajatlari esa **93099.3 mln.so‘mga** ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Kattaqo‘rg‘on shahar budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **815.0 mlnd.so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda shahar byudjetidan 2026-yilda hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Shahar byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun **1420.0 mln.so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi byudjet qonunchiligiga muvofiq, byudjet tizimi byudjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Quyidagilar:

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Shahar hokimining Moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev, shahar Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (O.Kadirov), shahar Soliq inspeksiyasi (F.G‘aniyev) bilan birgalikda 2026-yil mahalliy byudjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. Hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan byudjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari shahar Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

- byudjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

- o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

- byudjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

- tasarrufidagi tizim tashkilotlariga byudjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

- o‘z tasarrufidagi tizimda byudjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

- byudjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

8. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda shahar hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi (J.Quldoshev) hamda shahar hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Zavqiyev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G.Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-101-7-106-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/R	Daromad turlari	Jami
JAMI		**93 099 256**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	739 920
2	Foyda solig‘i	2 541 600
3	Aylanmadan olinadigan soliq	5 399 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	42 195 000
5	Jismoniy shaxslar mol mulkini ijaraga berishdan	1 641 000
6	Aksiz solig‘i jami	6 121 500
	shundan: benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	6 121 500
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 140 875
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 912 000
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	5 769 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 953 181
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 918 000
12	Davlat boji	1 685 320

13	Yig‘imlar	164 560
14	Jarimalar	705 300
15	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	213 000

ming so‘mda

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on shahar
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-101-7-106-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Kattaqo‘rg‘on shahar mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

№	Hududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
Xarajatlar miqdori, jami		**93 099 256**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	25 397 036
	shundan:	
	"Mening maktabim"	1 050 600
2	Madaniyat bo‘limi	8 880 281
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	3 411 837
4	Sport bo‘limi	5 831 501
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 836 761
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	1 496 103
7	Iqtisodiyot va moliya bo‘limlarini saqlash xarajatlari	2 359 004
8	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	224 073
9	Hokimiyat	25 610 523
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	13 098 207
	"Mahalla byudjeti" jamg‘armasi mablag‘lari	838 000
	Zahira jamg‘armasi	1 420 055
10	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi)	1 121 579
	shundan:	
	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	111 671

	Axborot-kutubxona markazlari	1 009 908
11	Obodonlashtirish boshqarmasi	16 930 558

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-18-101-7-106-K/25 -son qaroriga
3-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahardagi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha yer solig‘i stavkalari uchun 2026-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	Mahalla fuqaro yig‘inlari nomi	Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun		Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun	
		Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)	Koeffitsient	Yer solig‘i stavkasi 2026-yil uchun (so‘mda)
1	Guzalkent MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
2	Abdulla Kaxxor MFY	0,86	469,85	1,01	66 967 040
3	Miyonkol MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
4	Mehrjon MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
5	Ko‘shxovuz MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
6	Kuxnadam MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
7	Kunjupay MFY	1,06	579,12	1,16	76 912 640
8	Qoriravot MFY	1,06	579,12	1,16	76 912 640
9	Kattaqo‘rgon MFY	0,86	469,85	1,01	66 967 040
10	Islom Shoir MFY	0,86	469,85	1,01	66 967 040
11	Zomin MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
12	Ziyolilar MFY	1,06	579,12	1,16	76 912 640
13	Zarifobod MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
14	Zarafshon MFY	1,06	579,12	1,16	76 912 640
15	Yermachit MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
16	Damariq MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
17	G‘arb Machit MFY	1,27	693,85	1,08	71 608 320
18	Navbaxor MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
19	Noqis MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
20	Do‘stlik MFY	1,27	693,85	1,08	71 608 320

21	Nurobod MFY	0,86	469,85	1,01	66 967 040
22	Nurafshon MFY	1,06	579,12	1,16	76 912 640
23	Alisher Navoiy MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
24	Baland Chordara MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
25	Baxoriston MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
26	Vatanparvar MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
27	Yakkabog‘ MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
28	Chordara MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
29	Amir Temur MFY	1,27	693,85	1,08	71 608 320
30	Haydarchaman MFY	1,27	693,85	1,08	71 608 320
31	Usmon Nosir MFY	0,86	469,85	1,01	66 967 040
32	O‘rikzor MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
33	So‘fi Olloyor MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
34	Oq oltin MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
35	O.Miriy MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320
36	Chinobod MFY	1,06	579,12	1,08	71 608 320

Izoh: Soliq stavkalari va koeffisientlarni qo‘llash maqsadida quyidagilar inobatga olinadi.

Jumladan, Haydarchaman MFY Noqis MFYga, Zomin MFY Baxoriston MFYga, O.Miriy MFY Mehrjon MFYga, So‘fi Olloyor MFY Ziyolilar MFYga, Zarafshon MFY Nurafshon MFYga, Alisher Navoiy MFY Chordara MFY tarkibiga qo‘shilgan.